

UDK:

ORCID: 0009-0005-0573-1923

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA AXBOROT-
KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING
SAMARADORLIGI**

**ВНЕДРЕНИЕ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ
ТЕХНОЛОГИЙ В ДОШКОЛЬНЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ
УЧРЕЖДЕНИЯ**

**IMPLEMENTATION OF INFORMATION AND COMMUNICATION
TECHNOLOGIES IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS**

Berdiyorova Nilufar Berdiyov qizi

Xalqaro Nordik universiteti

“Psixologiya va maktabgacha ta’lim kafedrası” o’qituvchisi

E-mail: berdiyorovaniluberdiyovna@gmail.com

+998903938899

Annotatsiya: Ushbu maqola O‘zbekiston maktabgacha ta’lim tashkilotlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) joriy etishning samaradorligini tahlil qiladi. Tadqiqot natijalari AKTdan foydalanish bolalarning ijodkorlik, tanqidiy fikrlash va axborot bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda sezilarli natijalar berganini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, pedagoglar samaradorligi oshgani, ammo qishloq hududlarida texnologik infratuzilmaning yetarli emasligi kabi muammolar mavjudligi aniqlangan. Maqolada AKTni ta’lim jarayoniga kengroq joriy etish bo‘yicha tafsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, maktabgacha ta'lim, ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, pedagogika, infratuzilma, innovatsiya.

Аннотация: В статье анализируется эффективность внедрения информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в дошкольных образовательных учреждениях Узбекистана. Результаты исследования показывают, что использование ИКТ способствует развитию креативности, критического мышления и навыков работы с информацией у детей. Также выявлено, что эффективность педагогов повысилась, но в сельских районах наблюдается нехватка технологической инфраструктуры. В статье предложены рекомендации по более широкому внедрению ИКТ в образовательный процесс.

Ключевые слова: Информационно-коммуникационные технологии, дошкольное образование, креативность, критическое мышление, педагогика, инфраструктура, инновации.

Annotation: This article analyzes the effectiveness of implementing information and communication technologies (ICT) in preschool educational institutions in Uzbekistan. The research findings indicate that ICT usage significantly enhances children's creativity, critical thinking, and information-handling skills. It also highlights increased teacher efficiency but identifies challenges such as insufficient technological infrastructure in rural areas. Recommendations for broader ICT integration into the educational process are provided.

Keywords: Information and communication technologies, preschool education, creativity, critical thinking, pedagogy, infrastructure, innovation.

Kirish. O'zbekiston ta'lim tizimida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) joriy etish bugungi kundagi eng dolzarb vazifalardan biridir. Xususan, maktabgacha ta'lim bosqichi bolalarning aqliy, ijodiy va ijtimoiy qobiliyatlarini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu bosqichda AKTdan

foydalanish, bolalarning bilim olish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilish bilan birga, ularni zamonaviy dunyo talablari bilan uyg'unlashtirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda O'zbekiston maktabgacha ta'lim tashkilotlarida AKT joriy etishda ijobiy o'zgarishlar kuzatilayotgan bo'lsa-da, infratuzilma, pedagoglarning texnologik tayyorgarligi va qishloq hududlaridagi imkoniyatlarning cheklanganligi kabi muammolar hali ham mavjud. Xalqaro tajribalar ko'rsatganidek, AKTning keng ko'lamda va samarali joriy etilishi ta'lim tizimining umumiy sifatini oshirishga yordam beradi.

ASOSIY QISM: Ushbu maqolada O'zbekistonning maktabgacha ta'lim tashkilotlarida AKTdan foydalanishning holati, imkoniyatlari va muammolari tahlil qilinadi. Shuningdek, xalqaro tajribalar asosida milliy yondashuvlar taklif etiladi. Maqolani yoritishda asosiy quyidagi metodologik yondashuvlar qo'llanildi. Xalqaro va mahalliy ilmiy maqolalar, hukumat hisobotlari va YUNESKOning AKTni ta'limga joriy etish bo'yicha tavsiyalari o'rganildi. Bu ma'lumotlar O'zbekiston sharoitini xalqaro tajribalar bilan taqqoslash imkonini berdi. Toshkent shahri, Andijon va Xorazm viloyatlari misolida AKT joriy etilishining darajasi, texnologik ta'minot va undan foydalanish samaradorligi o'rganildi. Qishloq va shahar hududlari o'rtasidagi farqlar aniqlandi. Shaxsiy ish tajribamdan kelib chiqib va 50 dan ortiq pedagoglar, ota-onalar va tashkilot rahbarlari bilan suhbatlar o'tkazildi. Ularning fikrlari AKTning ta'lim jarayonidagi roli, mavjud muammolar va takliflarni aniqlashga yordam berdi. Interaktiv vositalar, elektron darsliklar va virtual o'quv dasturlarining samaradorligi o'rganildi. Vaholangki, maktabgacha ta'lim tizimida AKTning o'rnini juda yuqori ekanligi yaqqol ko'zga tashlandi. Maqolani yozish davomida olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra AKTning ta'lim jarayonidagi o'rnini va ahamiyatini quyidagicha yoritdi:

- 1. Bolalar rivojlanishida ijobiy ta'siri**
- 2. Pedagoglar samaradorligining oshishi**

3. Hududiy farqlar mavjudligi

4. Texnologik va tashkiliy muammolar

Bolalar rivojlanishiga ijobiy ta'siri juda yuqori bo'lib, AKTdan foydalanish bolalarning ijodkorlik, tanqidiy fikrlash va axborot bilan ishlash ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirdi. Eksperiment natijalariga ko'ra, elektron resurslardan foydalangan bolalar mavzuni o'zlashtirishda 35% tezroq bo'ldi.

Pedagogik samaradorlik oshishi ham ilmiy izlanishlar davomida aniqlangan va ko'p tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Elektron ta'lim resurslari, masofaviy platformalar va interaktiv dasturlar o'qituvchilarning darslarni samarali va qiziqarli tashkil etishiga yordam berdi. So'rovnomalar natijalariga ko'ra, pedagoglarning 72% texnologiyalar dars sifatini oshirishga yordam berganini bildirgan.

Hududiy farqlarning mavjudligi ham AKTdan foydalanish darajasining farq qilishiga olib keladi. Toshkent va boshqa shaharlarda AKTdan keng foydalanilayotgan bo'lsa-da, qishloq hududlarida texnologik infratuzilma va AKT vositalarining yetishmasligi kuzatildi. Masalan, Toshkentda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining 90% interaktiv vositalarga ega bo'lsa, qishloq hududlarida bu ko'rsatkich 40%dan oshmaydi.

Texnologik va tashkiliy muammolarning mavjudli ham ta'lim tizimida AKTdan foydalanish darajasini kamaytiradi. Texnik xizmat ko'rsatish tizimining zaifligi, pedagoglarning texnologiyaviy savodxonligining pastligi va AKT vositalarining eskirganligi asosiy muammolar sifatida aniqlangan.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, AKTdan foydalanish maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim jarayonini yangi bosqichga olib chiqadi. Ammo bu jarayon infratuzilma va pedagoglarning tayyorgarligiga bog'liq. Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, AKTni samarali joriy etish uchun quyidagi shartlar bajarilishi lozim:

O'qituvchilarni texnologik tayyorlash, hududiy tenglikni ta'minlash uchun qishloq hududlaridagi infratuzilmani rivojlantirish. Shu bilan bir qatorda milliy o'quv resurslarini ishlab chiqish va ularni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish. Bundan tashqari, AKTning bolalar psixologik rivojlanishiga ta'sirini o'rganish va ijtimoiy jihatlarini chuqurroq tahlil qilish zarur.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, O'zbekiston maktabgacha ta'lim tashkilotlarida AKTni joriy etish ta'lim sifatini oshirishda katta imkoniyat yaratadi. Ammo bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirishda texnologik infratuzilma, pedagoglarning malakasi va xalqaro tajribalarga asoslangan strategik yondashuvlarni talab qiladi. Ushbu maqola yuzasidan amalga oshirilgan tadqiqot natijalari milliy ta'lim tizimida innovatsiyalarni joriy etish bo'yicha amaliy tavsiyalarni taqdim etadi va kelajak avlodni raqamli dunyoga tayyorlashga ko'maklashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ikromova Nilufar Axmadjonovna, & Yangiboyeva Komila Abdulxamidovna (2021). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH VA ULARDAN FOYDALISH TARAQQIYOT POYDEVORIDIR. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1 (5), 329-

2. <https://lex.uz/docs/-3422069>